

**BO‘LAJAK OLIGOFRENOPEDEGOGLARNI ADAPTIV DIDAKTIK  
TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI****E.N.Ziyodullayeva,***Nizomiy nomidagi O‘zMPU tayanch doktoranti***DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18844607>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo‘ljak oligofrenopedagoglarning adaptiv didaktik tayyorgarligini takomillashtirish muammosi yoritilgan. Zamonaviy inklyuziv va maxsus ta‘lim tizimida intellektual rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlashga qodir, moslashuvchan va innovatsion yondashuvlarni qo‘llay oladigan mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Maqolada adaptiv didaktik tayyorgarlikning nazariy metodologik asoslari, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada adaptiv didaktik tayyorgarlikni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida fanlararo integratsiya, amaliyotga yo‘naltirilgan ta‘lim, differensial va individuallashtirilgan yondashuv hamda doimiy kasbiy rivojlanish tizimi taklif etiladi.

**Kalit so‘zlar:** oligofrenopedagog, adaptiv didaktika, kasbiy tayyorgarlik, kompetensiyaviy yondashuv, integrativ yondashuv, metodik kompetensiya, inklyuziv ta‘lim, maxsus ta‘lim, Bloom taksonomiyasi.

**Аннотация.** В данной статье освещена проблема совершенствования адаптивной дидактической подготовки будущих олигофренопедагогов. В современной системе инклюзивного и специального образования растет потребность в специалистах, способных работать с детьми с интеллектуальными нарушениями, применять гибкие и инновационные подходы. В статье анализируются теоретико-методологические основы адаптивной дидактической подготовки, значение компетентностного и интегративного подходов. В статье в качестве основных направлений совершенствования адаптивной дидактической подготовки предлагаются междисциплинарная интеграция, практико-ориентированное обучение, дифференцированный и индивидуализированный подход, а также система непрерывного профессионального развития.

**Ключевые слова:** олигофренопедагог, адаптивная дидактика, профессиональная подготовка, компетентностный подход, интегративный подход, методическая компетентность, инклюзивное образование, специальное образование, таксономия Блума.

**Abstract.** This article highlights the problem of improving the adaptive didactic training of future oligophrenopedagogues. In the modern system of inclusive and special education, there is a growing need for specialists capable of working with children with intellectual disabilities, applying flexible and innovative approaches. The article analyzes the theoretical and methodological foundations of adaptive didactic training, the significance of competency-based and integrative approaches. The article proposes interdisciplinary integration, practice-oriented education, a differentiated and individualized approach, and a system of continuous professional development as the main directions for improving adaptive didactic training.

**Keywords:** oligophrenopedagogue, adaptive didactics, professional training, competency-based approach, integrative approach, methodological competence, inclusive education, special education, Bloom's taxonomy.

**Kirish.** Mustaqil O‘zbekistonda ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi maxsus va inklyuziv ta‘lim tizimida sifatli o‘zgarishlarni taqozo etmoqda. Bugungi kunda intellektual rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning maxsus va inklyuziv ta‘lim muassasalaridagi soni ortib borayotgani, insonparvarlik,

tenglik va hamkorlik tamoyillariga asoslangan korreksion-rivojlantiruvchi ishni amalga oshirishga qodir mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda .

Oligofrenopedagog – bu intellektual nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish bilan shug'ullanadigan maxsus pedagogdir. Bunday mutaxassislarning faoliyati murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ulardan nafaqat chuqur nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar, ijodiy yondashuv va doimiy kasbiy rivojlanishni talab etadi. Ayniqsa, bugungi ta'lim jarayonining tez o'zgaruvchan sharoitida adaptiv didaktik tayyorgarlik masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Adaptiv didaktika deganda, biz o'quv jarayonini ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirish, shuningdek, o'zgaruvchan ta'lim muhitiga tezkorlik bilan javob bera olish qobiliyatini tushunamiz. Bo'lajak oligofrenopedagoglarda ana shunday adaptiv didaktik tayyorgarlikni shakllantirish va takomillashtirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Bo'lajak oligofrenopedagoglarni tayyorlash muammosi turli davrlarda ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, ukrainalik olim O. Kapustina o'z tadqiqotlarida oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda integrativ yondashuvning o'rnini chuqur tahlil qilgan . Uning fikricha, integrativ yondashuv turli bilim sohalarining o'zaro uyg'unlashuvi, nazariya va amaliyot birligini ta'minlash orqali kompetentli mutaxassisni shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonlik tadqiqotchi M.Y. Pardayeva esa bo'lajak oligofrenopedagoglarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyatini yoritgan . Uning ta'kidlashicha, kompetensiyaviy yondashuv ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv maqsadlari va natijalarini qayta belgilash, o'quv mazmunini modernizatsiyalash, pedagogik amaliyotni tubdan o'zgartirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutadi.

T.S. Nikandrova va E.S. Tusheva esa defektologik ta'limni rekonstruksiya qilish kontekstida oligofrenopedagoglarni tayyorlash mazmunini loyihalashdagi transformatsiyalarni tadqiq etgan . Ularning ishlari maxsus ta'lim ehtiyojlari va vazifalariga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini yaratish masalalariga bag'ishlangan.

Shuningdek, I.G.Yeremenkoning oligofrenopedagogika va oligofrenodidaktika sohasidagi ilmiy maktabi differentsiallashtirilgan ta'lim metodikasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan . Uning ta'lim strategiyalarini o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish borasidagi g'oyalari hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

**Tahlili natijalari va muhokama.** Bo'lajak oligofrenopedagoglarning adaptiv didaktik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi bugungi kunda maxsus ta'lim nazariyasi va amaliyotining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bu borada turli yondashuvlar va qarashlar mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos ahamiyatga ega.

Integrativ yondashuv tarafdorlari (O. Kapustina, O. Voznyuk, I. Kozlovskaya) ta'lim jarayonida turli fanlarning o'zaro integratsiyasini ta'minlash orqali bo'lajak

mutaxassislarda dunyoqarashning kengayishi, tizimli fikrlashning shakllanishi va kasbiy kompetensiyalarning rivojlanishiga erishish mumkinligini ta'kidlaydilar. Ushbu yondashuv oligofrenopedagogning intellektual nuqsoni bo'lgan bola shaxsini yaxlit tushunishi, uning tibbiy, psixologik va pedagogik xususiyatlarini birgalikda hisobga olib bilishi uchun zamin yaratadi.

Differensiallashtirilgan ta'lim metodikasi I.G. Yeremenko tomonidan asoslangan bo'lib, uning g'oyalari hozirgi kunda adaptiv didaktikaning nazariy asosi sifatida xizmat qilmoqda. Yeremenkoning ta'lim strategiyalarini o'quvchilarning individual xususiyatlariga moslashtirish, ularning kognitiv faolligini oshirish va o'quv jarayonini tuzilmalashtirish borasidagi qarashlari zamonaviy oligofrenopedagogika uchun ham dolzarbdir. Shuningdek, bo'lajak oligofrenopedagoglarni tayyorlashda amaliyotga yo'naltirilgan ta'limning ahamiyati katta. Bu borada I.G. Eliseevaning tajribasi diqqatga sazovor: u oligofrenopedagogika mutaxassisligi bo'yicha qayta tayyorlash kurslari va malaka oshirish dasturlarida maxsus maktabda o'qitish jarayonini loyihalash texnologiyasi, umumta'lim muassasalarida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ko'rsatish, Montessori-pedagogikasidan foydalanish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga olgan kurslarni ishlab chiqqan.

Noan'anaviy ta'lim shakllaridan foydalanish, xususan vebinarlar tashkil etish bo'lajak oligofrenopedagoglarning adaptiv didaktik tayyorgarligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. RGPU tajribasi shuni ko'rsatadiki, vebinarlar orqali nafaqat asosiy ta'lim yo'nalishi talabalari, balki turdosh mutaxassisliklar vakillari ham o'zaro hamkorlik qilish, tajriba almashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa inklyuziv ta'lim sharoitida turli mutaxassislarning hamkorlikda ishlashi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bloom taksonomiyasidan foydalanish bo'lajak oligofrenopedagoglarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi amaliyotda o'z isbotini topmoqda. Taksonomiyaning har bir darajasi o'quvchilarda muayyan kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu oligofrenopedagogga o'z o'quvchilarining imkoniyatlariga mos ravishda ta'lim maqsadlarini belgilash, topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va baholash vositalarini tanlash imkonini beradi.

Adaptiv didaktik tayyorgarlikni takomillashtirishning yana bir muhim yo'nalishi – bu bo'lajak mutaxassislarda refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishdir. Oligofrenopedagog o'z faoliyatini tahlil qila olishi, qo'llagan metod va vositalarning samaradorligini baholay olishi, kerak bo'lganda ularni tezkorlik bilan o'zgartira olishi lozim. Bu esa adaptiv yondashuvning asosiy talablaridan biridir.

Bo'lajak oligofrenopedagoglarning adaptiv didaktik tayyorgarligini takomillashtirish ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lib, u uzviy, tizimli hamda ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Mazkur jarayon, avvalo, integrativ yondashuvni kuchaytirishni nazarda tutadi. Ya'ni psixologik-pedagogik, tibbiy va maxsus metodik bilimlarning o'zaro

uyg'unligi ta'minlanishi orqali bo'lajak mutaxassislarda intellektual nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlari haqida yaxlit va kompleks tasavvur shakllantiriladi. Bunday integratsiya nazariy bilimlarning parchalanib ketishining oldini olib, ularni amaliy faoliyat bilan bog'lash imkonini beradi.

Shuningdek, tayyorgarlik jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni izchil joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim mazmuni aniq kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilishi, o'quv dasturlari esa real pedagogik amaliyot talablari bilan uyg'unlashtirilishi lozim. Bu esa bo'lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini oshiradi hamda ularning mustaqil pedagogik qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Adaptiv didaktik tayyorgarlikni takomillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish ham dolzarb hisoblanadi. Xususan, Benjamin Bloom tomonidan ishlab chiqilgan Bloom taksonomiyasi asosida o'quv maqsadlarini bosqichma-bosqich rejalashtirish, shuningdek, vebinarlar, masofaviy ta'lim shakllari va axborot-kommunikativ texnologiyalarni keng qo'llash ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Bu jarayon talabalarda tahliliy fikrlash, refleksiya va muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, differensial va individuallashtirilgan yondashuvni ta'minlash alohida e'tiborni talab qiladi. Bu borada I.G. Yeremenko ilmiy maktabi g'oyalari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Unga ko'ra, har bir bolaning psixofiziologik va kognitiv xususiyatlari hisobga olingan holda individual ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Shu bois bo'lajak mutaxassislarda har bir o'quvchining imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos pedagogik yondashuvni tanlash ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish ham adaptiv didaktik tayyorgarlikning ajralmas qismidir. Nazariy bilimlarni real ta'lim muassasalari sharoitida mustahkamlash, turli tipdagi maxsus va inklyuziv ta'lim tashkilotlarida sifatli pedagogik amaliyotni yo'lga qo'yish orqali talabalarning kasbiy tajribasi boyitiladi. Bu esa ularning kelgusidagi mustaqil faoliyatiga mustahkam zamin yaratadi.

Nihoyat, bo'lajak oligofrenopedagoglarda doimiy kasbiy rivojlanishga intilish, o'z-o'zini tahlil qilish va innovatsion yangiliklarga ochiqlik kabi sifatarni shakllantirish zarur. Uzluksiz malaka oshirish va kasbiy refleksiya tizimini yo'lga qo'yish orqali mutaxassislarning kasbiy kompetentligini barqaror rivojlantirish mumkin bo'ladi. Shu tariqa, adaptiv didaktik tayyorgarlikni takomillashtirish jarayoni tizimli, integrativ va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv asosida samarali amalga oshiriladi.

**Xulosa.** Bo'lajak oligofrenopedagoglarning adaptiv didaktik tayyorgarligini takomillashtirish zamonaviy maxsus va inklyuziv ta'lim talablariga javob beradigan, raqobatbardosh, ijodkor va moslashuvchan mutaxassislarni tayyorlashning muhim shartidir. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlarni kompleks tarzda amalga oshirish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va mahalliy sharoitga

moslashtirish, shuningdek, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari – professor-o'qituvchilar, talabalar va amaliyotchi mutaxassislarining hamkorligini ta'minlash zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kapustina, O. (2023). An integrative approach to the development of professional competence of masters-oligophrenopedagogues in the professional training system. *Bulletin of Luhansk Taras Shevchenko National University*, 5(359), 74-80.
2. Suprun, D., Suprun, M., Hladchenko, I., & Kapliienko, A. (2025). Professor Ivan Havrylovych Yeremenko and national defectology. *Izmail State University Journal*, 70, 232-236.
3. Pardayeva, M.Y. (2024). Development of methodological readiness of future oligophrenopedagogues. *Current Research Journal of Pedagogics*, 5(11), 143-147.
4. Nikandrova, T.S., & Tusheva, E.S. (2024). Transformations in the design of educational content for oligophrenopedagogical students in the context of reconstruction of defectology education. *Shkola budushchego*, 3, 172-191.
5. Eliseeva, I.G. (2021). Oligofrenopedagogika mutaxassisligi bo'yicha qayta tayyorlash kurslari dasturlari. *Respublikanskiy obrazovatelnyy portal*.
6. Using webinars in professional training of students of non-core faculties to work with children with disabilities in the conditions of non-linear learning. (2025). *Vestnik psikhofiziologii*, ilova.

